

KREDIT-MODUL TIZIMIDA O'QUV-ME'YORIY HUJJATLARNI TAKOMILLASHTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.22052472>

Aralova Maxsuma Abdurahmonovna

*Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti O'quv-uslubiy
boshqarma bosh mutaxassisi*

Annotatsiya

Mazkur maqolada kredit-modul tizimi sharoitida o'quv-me'yoriy hujjatlarni takomillashtirishning pedagogik imkoniyatlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Maqolada o'quv-me'yoriy hujjatlarning pedagogik mohiyati, ularning kredit-modul tizimidagi funksional vazifalari hamda ta'lim jarayonini tashkil etishdagi didaktik imkoniyatlari yoritilgan. O'quv rejalari, fan dasturlari, sillabuslar, ta'lim natijalari va baholash mezonlarining o'zaro konstruktiv uyg'unligi kredit-modul tizimining samarali faoliyat yuritishida asosiy pedagogik omil sifatida asoslangan. Shuningdek, o'quv-me'yoriy hujjatlarni strategik, mazmuniy-didaktik, operativ-didaktik va baholovchi-dagnostik guruhlariga ajratish asosida ularning ilmiy tasnifi ishlab chiqilgan. Kredit-modul tizimida o'quv-me'yoriy hujjatlarni takomillashtirish ta'lim mazmunini natijaga yo'naltirish, mustaqil ta'limni samarali tashkil etish, baholash jarayonining obyektivligini ta'minlash hamda ta'lim sifatini boshqarish imkoniyatlarini kengaytirishi aniqlangan.

Kalit so'zlar

kredit-modul tizimi, o'quv-me'yoriy hujjatlar, ta'lim natijalari, kompetensiyaviy yondashuv, sillabus, fan dasturi, baholash mezonlari, pedagogik imkoniyatlar, konstruktiv uyg'unlik.

Аннотация. В данной статье научно-теоретически проанализированы педагогические возможности совершенствования учебно-нормативных документов в условиях кредитно-модульной системы. Освещены педагогическая сущность учебно-нормативных документов, их функциональные задачи в кредитно-модульной системе и дидактические возможности в организации образовательного процесса. Обосновано, что конструктивная согласованность учебных планов, учебных программ, силлабусов, результатов обучения и критериев оценивания выступает основным педагогическим фактором эффективного функционирования кредитно-модульной системы. На основе разделения учебно-нормативных

документов на стратегические, содержательно-дидактические, оперативно-дидактические и оценочно-диагностические группы разработана их научная классификация. Результаты исследования показали, что совершенствование учебно-нормативных документов в кредитно-модульной системе способствует ориентации содержания образования на результаты, эффективной организации самостоятельного обучения, обеспечению объективности оценивания и расширению возможностей управления качеством образования.

Ключевые слова

кредитно-модульная система, учебно-нормативные документы, результаты обучения, компетентностный подход, syllabus, учебная программа, критерии оценивания, педагогические возможности, конструктивное согласование.

Abstract

This article scientifically and theoretically analyzes the pedagogical opportunities for improving educational and regulatory documents in the context of the credit-module system. The pedagogical essence of educational and regulatory documents, their functional tasks in the credit-module system, and their didactic opportunities in organizing the educational process are highlighted. The constructive alignment of curricula, subject programs, syllabi, learning outcomes, and assessment criteria is substantiated as the main pedagogical factor for the effective functioning of the credit-module system. In addition, a scientific classification of educational and regulatory documents was developed by dividing them into strategic, content-didactic, operational-didactic, and assessment-diagnostic groups. According to the research results, improving educational and regulatory documents in the credit-module system expands opportunities for orienting educational content toward outcomes, effectively organizing independent learning, ensuring objectivity in assessment, and managing the quality of education.

Keywords

credit-module system, educational-regulatory documents, learning outcomes, competency-based approach, syllabus, curriculum, assessment criteria, pedagogical opportunities, constructive alignment.

Kirish

O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, uni xalqaro standartlar asosida rivojlantirish hamda kredit-modul tizimini joriy etish

bo'yicha keng ko'lamli me'yoriy-huquqiy islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi oliy ta'lim tizimida kredit-modul tizimini bosqichma-bosqich joriy etish, o'quv dasturlarini xalqaro standartlarga moslashtirish, akademik mustaqillikni kengaytirish hamda ta'lim natijalariga yo'naltirilgan yondashuvni amaliyotga tatbiq etishning strategik asoslarini belgilab berdi. Mazkur konsepsiyada ta'lim jarayonini **learning outcomes** (ta'lim natijalari) asosida loyihalash, sillabus va fan dasturlarini takomillashtirish, baholash tizimini shaffoflashtirish hamda talaba markazli ta'limni rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida qayd etilgan[1].

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan kredit-modul tizimini tashkil etishga oid me'yoriy-uslubiy hujjatlar, davlat ta'lim standartlari, malaka talablari va namunaviy o'quv rejalari oliy ta'lim muassasalarida o'quv-me'yoriy hujjatlarni zamonaviy pedagogik talablar asosida qayta ishlab chiqish zaruratini kuchaytirmoqda. Ayniqsa, ta'lim natijalari, kompetensiyalar va baholash mezonlari o'rtasidagi konstruktiv uyg'unlikni ta'minlash kredit-modul tizimining samaradorligini belgilovchi asosiy pedagogik omillardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda[2].

Kredit-modul tizimining samarali faoliyat yuritishi, avvalo, o'quv-me'yoriy hujjatlarning mazmuni, tuzilishi va didaktik imkoniyatlariga bevosita bog'liqdir. Chunki o'quv-me'yoriy hujjatlar ta'lim tizimining tashkiliy asosi bo'lish bilan birga, ta'lim maqsadlari, mazmuni, o'qitish metodlari, ta'lim natijalari va baholash jarayonlarini yagona pedagogik tizimga birlashtiruvchi muhim didaktik mexanizm hisoblanadi. Shu sababli kredit-modul tizimi sharoitida o'quv-me'yoriy hujjatlarni ilmiy asosda takomillashtirish masalasi zamonaviy pedagogika fanining dolzarb ilmiy muammolaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

An'anaviy ta'lim tizimida o'quv-me'yoriy hujjatlar asosan ta'lim jarayonini tartibga soluvchi normativ vosita sifatida qaralgan bo'lsa, kredit-modul tizimida ularning pedagogik mohiyati sezilarli darajada kengaydi. Zamonaviy pedagogik paradigmalarda o'quv rejalari, fan dasturlari, sillabuslar, ta'lim natijalari va baholash mezonlari ta'lim mazmunini loyihalash, talabaning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish va ta'lim sifatini boshqarishning asosiy vositalari sifatida talqin qilinmoqda. Shu nuqtai nazardan kredit-modul tizimida o'quv-me'yoriy hujjatlarni takomillashtirish masalasini pedagogik kategoriya sifatida chuqur ilmiy asosda tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Kredit-modul tizimi sharoitida o'quv-me'yoriy hujjatlarning pedagogik mohiyatini ochib berish, avvalo, mazkur hujjatlarning zamonaviy ta'lim

paradigmasidagi o'rnini aniqlashni talab etadi. O'quv-me'yoriy hujjatlar ta'lim tizimining tashkiliy modeli bo'lish bilan birga, ta'lim jarayonining didaktik mazmunini belgilovchi va boshqaruvchi asosiy pedagogik vositalardan biri sifatida namoyon bo'ladi. Ular orqali ta'lim maqsadlari, kutilayotgan natijalar, o'quv yuklamasi, o'qitish shakllari va baholash tizimi yagona mantiqiy tizimga birlashtiriladi.

Ilmiy adabiyotlarda o'quv-me'yoriy hujjatlar tushunchasi turlicha talqin qilinadi. Ayrim tadqiqotchilar ularni ta'lim jarayonini tartibga soluvchi normativ hujjatlar majmui sifatida baholasa, zamonaviy pedagogik yondashuvlarda ular pedagogik loyihalashtirishning markaziy instrumenti sifatida talqin qilinmoqda. Kompetensiyaviy va natijaga yo'naltirilgan ta'lim paradigmasida o'quv-me'yoriy hujjatlar ta'lim natijalarini rejalashtirish, kompetensiyalarni shakllantirish va baholashni tashkil etishning integrativ vositasi hisoblanadi[3].

Kredit-modul tizimi o'quv-me'yoriy hujjatlarga nisbatan mutlaqo yangi pedagogik talablarni yuzaga keltirdi. Mazkur tizimda ta'lim jarayoni fan yoki auditoriya soatlariga emas, balki talaba tomonidan egallanishi lozim bo'lgan ta'lim natijalari va kompetensiyalarga yo'naltiriladi. Shu sababli o'quv-me'yoriy hujjatlar ham natijaga yo'naltirilgan, modullashtirilgan va talabaga yo'naltirilgan yondashuv asosida qayta ishlab chiqilishi lozim.

Kredit-modul tizimida o'quv-me'yoriy hujjatlar bir necha funksional vazifalarni bajaradi. Birinchidan, ular ta'lim mazmunini tizimlashtirish va strukturaviy jihatdan tashkil etishga xizmat qiladi. Ikkinchidan, ta'lim natijalarini aniqlash va ularni baholash mexanizmlarini belgilaydi. Uchinchidan, o'qituvchi va talaba o'rtasidagi pedagogik hamkorlikni muvofiqlashtiradi. To'rtinchidan, mustaqil ta'limni boshqarish va nazorat qilish imkoniyatini yaratadi. Beshinchidan, ta'lim sifatini monitoring qilish va pedagogik tuzatishlar kiritish uchun metodik asos vazifasini bajaradi[4].

Kredit-modul tizimida o'quv-me'yoriy hujjatlarni ilmiy asosda tasniflash ularning pedagogik imkoniyatlarini tizimli tahlil qilish imkonini beradi. Mazkur tizimda o'quv-me'yoriy hujjatlarni quyidagi asosiy guruhlariga ajratish maqsadga muvofiqdir: strategik o'quv-me'yoriy hujjatlar, mazmuniy-didaktik hujjatlar, operativ-didaktik hujjatlar hamda baholovchi-dagnostik hujjatlar.

Strategik o'quv-me'yoriy hujjatlar tarkibiga davlat ta'lim standartlari, malaka talablari va o'quv rejalari kiradi. Ushbu hujjatlar ta'lim tizimining umumiy maqsadlari, kutilayotgan natijalari va o'quv yuklamasining umumiy tuzilishini belgilaydi. Kredit-modul tizimida strategik hujjatlar ta'lim natijalarini kreditlar orqali ifodalash, ta'lim mazmunini moslashuvchan rejalashtirish hamda akademik mobillikni ta'minlash imkoniyatini yaratadi.

Mazmuniy-didaktik hujjatlar fan dasturlari va modul tavsiflarini o'z ichiga oladi. Ular ta'lim mazmunini strukturalash, modullar ketma-ketligini belgilash va kompetensiyalarni shakllantirish jarayonini didaktik jihatdan ta'minlashga xizmat qiladi. Kredit-modul tizimida aynan mazkur hujjatlar orqali ta'lim mazmunining natijaga yo'naltirilganligi ta'minlanadi.

Operativ-didaktik hujjatlar tarkibiga sillabuslar, o'quv-uslubiy ko'rsatmalar va mustaqil ta'lim topshiriqlari kiradi. Mazkur hujjatlar talabaning kundalik o'quv faoliyatini rejalashtirish, o'qituvchi va talaba o'rtasidagi pedagogik hamkorlikni muvofiqlashtirish hamda ta'lim jarayonining shaffofligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Baholovchi-dagnostik hujjatlar esa baholash mezonlari, reyting tizimi, oraliq va yakuniy nazorat talablarini qamrab oladi. Kredit-modul tizimida ushbu hujjatlar ta'lim natijalari bilan baholash o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ta'minlash, ta'lim sifatini monitoring qilish va pedagogik tuzatishlar kiritish imkonini beradi.

Kredit-modul tizimida o'quv rejalari alohida strategik ahamiyat kasb etadi. Chunki o'quv reja ta'lim tizimining umumiy konseptual modeli bo'lib, u ta'lim maqsadlari, kutilayotgan natijalar, fanlar va modullar tarkibi, o'quv yuklamasining hajmi hamda ularning o'zaro nisbatini belgilovchi asosiy hujjat hisoblanadi. Shu jihatdan o'quv rejalari kredit-modul tizimida ta'lim mazmunini rejalashtirish va boshqarishning markaziy pedagogik mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi.

Kredit-modul tizimida o'quv rejalari ta'lim mazmunini moslashuvchan rejalashtirish imkonini yaratadi. Kreditlar orqali o'quv yuklamasining aniq belgilanishi, tanlov fanlari ulushining oshirilishi va individual o'quv traektoriyalarining shakllantirilishi talabaning qiziqishlari va kasbiy rejalari bilan ta'lim mazmunini uyg'unlashtirishga xizmat qiladi. Bu holat ta'lim jarayonida talaba markazli yondashuvning real pedagogik mazmun bilan to'ldirilishiga imkon yaratadi.

O'quv rejalarning modul asosida tuzilishi orqali fanlararo integratsiya kuchayadi, takrorlanishlar kamayadi va ta'lim mazmunining yaxlitligi ta'minlanadi. Fanlarning alohida-alohida emas, balki kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiluvchi modullar asosida tashkil etilishi talabaning bilimlarni tizimli ravishda egallashiga yordam beradi.

Kredit-modul tizimida o'quv rejalari ta'lim natijalari va baholash tizimi o'rtasidagi bog'liqlikni mustahkamlash imkonini beradi. O'quv reja darajasida belgilangan kompetensiyalar keyingi bosqichlarda fan dasturlari, sillabuslar va baholash mezonlari orqali izchil rivojlantiriladi. Natijada ta'lim jarayoni fragmentar emas, balki yagona pedagogik tizim sifatida shakllanadi.

Kredit-modul tizimida fan dasturlari mazmuniy-didaktik hujjatlar sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki fan dasturi o'quv rejasida belgilangan strategik maqsadlar va kutilayotgan ta'lim natijalarini bevosita o'qitish jarayoniga tatbiq etuvchi asosiy hujjat hisoblanadi. Fan dasturlari ta'lim mazmunini didaktik jihatdan strukturalash, modullar ketma-ketligini belgilash va kompetensiyalarni shakllantirish jarayonini tashkil etishda markaziy o'rin tutadi.

Kredit-modul tizimida fan dasturlarini takomillashtirish ta'lim mazmunini modul asosida strukturalash imkoniyatini yaratadi. Fan dasturi doirasida mavzular modulga birlashtirilishi orqali ta'lim mazmuni mantiqan yakunlangan, kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan bloklar asosida tashkil etiladi. Bu holat o'qitish jarayonida izchillikni ta'minlab, talabaning bilimlarni fragmentar emas, balki tizimli ravishda o'zlashtirishiga xizmat qiladi.

Fan dasturlarini takomillashtirish nazariya va amaliyot uyg'unligini kuchaytiradi. Auditoriya mashg'ulotlari, mustaqil ta'lim va amaliy topshiriqlar o'rtasidagi nisbat kreditlar orqali aniq belgilanishi natijasida ta'lim jarayoni real o'quv yuklamasiga moslashtiriladi. Bu esa fan dasturining pedagogik samaradorligini oshiradi va bitiruvchining kasbiy tayyorgarligini mustahkamlaydi.

Kredit-modul tizimida fan dasturlari ta'lim natijalari va baholash tizimi o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ta'minlash imkoniyatiga ega bo'ladi. Fan dasturida belgilangan natijalar keyingi bosqichlarda sillabus va baholash mezonlari orqali konkretlashtiriladi. Natijada baholash jarayoni subyektivlikdan holi bo'lib, o'qitish jarayonining didaktik mantiqiga to'liq mos keladi.

Sillabuslar operativ-didaktik hujjatlar sifatida ta'lim jarayonining real amalga oshirilishini ta'minlovchi asosiy pedagogik mexanizm vazifasini bajaradi. Sillabuslar talabaning o'quv faoliyatini rejalashtirish, o'qitish faoliyati va baholash mezonlarini muvofiqlashtirish hamda mustaqil ta'limni boshqarishda markaziy ahamiyatga ega. Sillabuslar orqali ta'lim natijalari talaba uchun aniq, tushunarli va o'lchovli shaklda ifodalanadi. Bu holat talabaning o'quv faoliyatini ongli rejalashtirishiga, o'z-o'zini baholash va refleksiya ko'nikmalarini rivojlantirishiga xizmat qiladi. Sillabuslar kredit-modul tizimida mustaqil ta'limni boshqarishning markaziy vositasiga aylanadi. Mustaqil ta'lim topshiriqlari, ularning hajmi, bajarish muddatlari va baholash mezonlarining sillabusda aniq belgilanishi talabaning real o'quv yuklamasini muvozanatlashtirish imkonini beradi.

Baholash mezonlari va ballar taqsimotining sillabusda oldindan ochiq belgilanishi ta'lim jarayonida subyektivlikni kamaytiradi va akademik halollik muhitini mustahkamlaydi. Bu jihat sillabuslarning kredit-modul tizimidagi pedagogik qiymatini yanada oshiradi.

Kredit-modul tizimining didaktik mohiyati ta'lim jarayonini erishilishi lozim bo'lgan ta'lim natijalari asosida loyihalash bilan belgilanadi. Shu sababli ta'lim natijalari kredit-modul tizimida barcha o'quv-me'yoriy hujjatlarni birlashtiruvchi markaziy didaktik kategoriya sifatida namoyon bo'ladi.

Ta'lim natijalari talaba o'qish jarayoni yakunida nimani bilishi, nimani tushunishi va nimani bajara olishi lozimligini ifodalovchi aniq, o'lchovli va kuzatiladigan ko'rsatkichlar sifatida talqin qilinadi. Kredit-modul tizimida ta'lim natijalarini ilmiy asosda aniqlash va ularni o'quv-me'yoriy hujjatlarda to'g'ri hujjatlashtirish ta'lim jarayonining samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Kredit-modul tizimida ta'lim natijalarini bir necha mezonlar asosida tasniflash mumkin. Mazmuniy darajasiga ko'ra ta'lim natijalari *bilimga oid, amaliy ko'nikma va malakalarga oid* hamda *umumkasbiy va kasbiy kompetensiyalarga oid* natijalarga ajratiladi. Ta'lim darajasiga ko'ra modul darajasidagi natijalar, fan darajasidagi natijalar va ta'lim dasturi darajasidagi natijalar farqlanadi. Funksional yo'nalganligiga ko'ra esa akademik, kasbiy hamda shaxsiy va ijtimoiy natijalar ajratiladi[5].

Kredit-modul tizimida ta'lim natijalarini to'g'ri hujjatlashtirish o'quv rejalari, fan dasturlari va sillabuslar o'rtasidagi mantiqiy bog'liqlikni ta'minlaydi. Ta'lim natijalari strategik darajada o'quv rejalarda, mazmuniy darajada fan dasturlarida va operativ darajada sillabuslarda izchil aks ettirilishi ta'lim jarayonining yaxlitligini ta'minlaydi.

Ta'lim natijalarini hujjatlashtirish baholash jarayonini obyektivlashtirish imkoniyatini yaratadi. Agar baholash mezonlari aniq belgilangan ta'lim natijalariga tayanib ishlab chiqilsa, baholash subyektivlikdan holi bo'lib, ta'lim sifatini real aks ettiruvchi mexanizmga aylanadi. Bu esa ta'lim sifatini monitoring qilish va pedagogik tuzatishlar kiritish imkonini beradi.

Kredit-modul tizimida baholash jarayoni ta'lim natijalarining erishilganlik darajasini aniqlash bilan birga, ta'lim mazmuni, o'qitish metodlari va talabanning o'quv faoliyatini boshqarishga xizmat qiluvchi markaziy didaktik mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. Shu sababli baholash mezonlari kredit-modul tizimida nafaqat nazorat vositasi, balki pedagogik instrument sifatida qaraladi.

Baholash mezonlarini maqsadga yo'naltirilganligi nuqtai nazaridan diagnostik, formativ va summativ turlarga ajratish mumkin. Diagnostik baholash talabanning boshlang'ich tayyorgarlik darajasini aniqlashga xizmat qiladi. Formativ baholash ta'lim jarayoni davomida talabanning rivojlanish dinamikasini monitoring qilish va pedagogik tuzatishlar kiritish imkonini beradi. Summativ baholash esa ta'lim natijalarining yakuniy darajasini aniqlashga qaratilgan.

Baholash mezonlarini baholash obyektiga ko'ra *bilimga yo'naltirilgan, amaliy ko'nikma va malakalarga yo'naltirilgan* hamda *kompetensiyaviy* mezonlarga ajratish mumkin. Bilimga yo'naltirilgan baholash mezonlari talabaning nazariy bilimlari va tahliliy fikrlash darajasini aniqlashga xizmat qilsa, kompetensiyaviy mezonlar talabaning kasbiy faoliyatga tayyorlik darajasini baholash imkonini beradi.

Kredit-modul tizimida baholash jarayoni ko'p subyektli tizim sifatida qaraladi. Shu sababli o'qituvchi tomonidan baholash bilan bir qatorda o'z-o'zini baholash va o'zaro baholash shakllari ham muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi. O'z-o'zini baholash talabaning refleksiv kompetensiyasini rivojlantirsa, o'zaro baholash hamkorlikda o'rganish va akademik muloqot ko'nikmalarini shakllantiradi.

Kredit-modul tizimida o'quv-me'yoriy hujjatlarni takomillashtirish ta'lim sifatini boshqarishning samarali vositasi hisoblanadi. Mazkur hujjatlar orqali ta'lim yuklamasining maqbulligi, talabaning o'zlashtirish imkoniyatlari va pedagogik samaradorlik monitoring qilinadi. Bu esa ta'lim jarayonini doimiy ravishda takomillashtirib borish imkoniyatini yaratadi.

O'quv-me'yoriy hujjatlarni takomillashtirish ta'lim mazmunini natijaga yo'naltirish imkonini beradi. Ta'lim jarayonining barcha tarkibiy qismlarini **learning outcomes** asosida loyihalash talabaning kasbiy kompetensiyalarini izchil shakllantirishga xizmat qiladi.

Mazkur tizimda mustaqil ta'limni ilmiy asosda tashkil etish va boshqarish imkoniyatlari kengayadi. Mustaqil ta'lim topshiriqlari, ularning hajmi, bajarish muddatlari va baholash mezonlarining aniq belgilanishi talabaning mustaqil o'quv faoliyatini samarali tashkil etishga yordam beradi.

Kredit-modul tizimida o'quv-me'yoriy hujjatlarni takomillashtirish ta'lim jarayonining shaffofligini ta'minlaydi. O'quv yuklamasi, baholash mezonlari va ta'lim natijalarining oldindan ochiq belgilanishi o'qituvchi va talaba o'rtasidagi pedagogik hamkorlikni mustahkamlaydi hamda akademik halollik muhitini shakllantiradi.

Shuningdek, hujjatlarni takomillashtirish pedagogik jarayonning samaradorligini oshirish bilan birga, ta'lim sifatini xalqaro standartlar darajasiga olib chiqish imkonini beradi. Ayniqsa, ta'lim mazmunining modullashtirilishi, baholash tizimining obyektivlashtirilishi va talaba markazli yondashuvning rivojlantirilishi oliy ta'lim tizimining zamonaviy rivojlanish tendensiyalariga mos keladi.

Xulosa

Kredit-modul tizimida o'quv-me'yoriy hujjatlarni takomillashtirishning pedagogik imkoniyatlari ta'lim mazmunini natijaga yo'naltirish, mustaqil ta'limni

samarali tashkil etish, baholash jarayonining obyektivligi va shaffofligini ta'minlash bilan belgilanadi. Ta'lim natijalarining aniq ifodalanishi hamda ularning o'quv-me'yoriy hujjatlarda izchil aks ettirilishi kredit-modul tizimining pedagogik samaradorligini ta'minlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi.

Shu bilan birga, kredit-modul tizimi amaliyotida o'quv-me'yoriy hujjatlarning didaktik funksiyalarini to'liq anglash, ta'lim natijalari bilan konstruktiv uyg'unlikni ta'minlash hamda hujjatlar mazmunini kompetensiyaviy yondashuv asosida loyihalash zarurati saqlanib qolmoqda. Bu esa o'quv-me'yoriy hujjatlarni ilmiy-nazariy asosda takomillashtirish, ularning tasnifi va pedagogik imkoniyatlarini aniqlashtirish hamda amaliyotga samarali tatbiq etish mexanizmlarini ishlab chiqishni talab qiladi.

Natijada kredit-modul tizimida o'quv-me'yoriy hujjatlarni takomillashtirish oliy ta'lim sifatini oshirish, talaba markazli yondashuvni rivojlantirish, kompetensiyaviy ta'limni samarali tashkil etish hamda xalqaro ta'lim standartlariga integratsiyalashuvni ta'minlovchi muhim pedagogik omil sifatida namoyon bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 08.10.2019 yildagi PF-5847-son.
2. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining sohaga doir hujjatlari.
3. Novikov A. M. Основания педагогики: пособие для авторов учебников и преподавателей педагогики. – Moskva: Egves, 2010.
4. Baydenko V.I. Компетентностный подход в современном образовании. – Moskva, 2005.
5. Biggs J., Tang C. Teaching for Quality Learning at University. – New York, 2011.